

## **TIKA TASHKILOTINING MARKAZIY OSIYODAGI HAMKORLIGI VA TA'SIR DINAMIKASI**

**Azamat Sharipov**

Oriental universiteti,

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

+99890 189 93 68

[tarixiypochta@gmail.com](mailto:tarixiypochta@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Turkiya hamkorlik va koordinatsiya agentligi (TIKA)ning Markaziy Osiyo davlatlaridagi faoliyati rivojlanish hamkorligi va yumshoq kuch nazariyalari kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqot 1992-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi hamda statistik ma'lumotlar, shuningdek nufuzli bazalarida indekslangan ilmiy manbalarga tayangan. Maqolada agentlikning institutsional evolyutsiyasi, mintaqaga yo'naltirilgan moliyaviy oqimlar dinamikasi va ularning Turkiya tashqi siyosati maqsadlari bilan o'zaro bog'liqligi yillar kesimida ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *TIKA, Markaziy Osiyo, rasmiy rivojlanish yordami, yumshoq kuch, Turkiya tashqi siyosati, texnik hamkorlik, turkiy integratsiya.*

### **TIKA IN CENTRAL ASIA: PATTERNS OF ENGAGEMENT AND THE DYNAMICS OF INFLUENCE**

#### **ABSTRACT**

*This article analyses the activities of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA) in the states of Central Asia within the context of the theories of development cooperation and soft power. The study covers the period from 1992 to 2023 and draws on statistical data as well as on scholarly sources indexed in authoritative databases. The article examines the agency's institutional evolution, the dynamics of the financial flows directed to the region, and their interrelationship with the objectives of Turkish foreign policy, considered on a year-by-year basis.*

**Keywords:** *TIKA, Central Asia, official development assistance, soft power, Turkish foreign policy, technical cooperation, Turkic integration.*

#### **KIRISH**

Sovet Ittifoqining parchalanishi va Markaziy Osiyoda beshta mustaqil respublikaning - Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, O'zbekiston va

Tojikistonning paydo bo'lishi Turkiya uchun tashqi siyosiy yo'nalishini qaytadan loyihalashtirish imkoniyatini yaratdi. Aynan shu geosiyosiy o'zgarish sharoitida Turkiya hamkorlik va koordinatsiya agentligi (TIKA) 1992-yil yanvarida tashkil etildi. Uning dastlabki vazifasi mustaqillikka erishgan turkiy respublikalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish edi (Özkan & Demirtepe, 2012). Boshqacha aytganda, agentlikning o'zi institutsional jihatdan Markaziy Osiyo bilan hamkorligi masalasining bevosita mahsuli bo'lib, bu hol uning keyingi butun faoliyat mantig'ini belgilab berdi.

### **NAZARIY ASOS VA METODOLOGIYA**


Nazariy jihatidan, TIKA yordamini sof xayriya yoki rivojlanish iqtisodiyoti hodisasi sifatida emas, balki tashqi siyosat quroli sifatida talqin qiluvchi yondashuv samaraliroq natija beradi. J. Nay taklif etgan «yumshoq kuch» konsepsiyasiga ko'ra, davlat o'z maqsadlariga majburlash yoki iqtisodiy bosim orqali emas, balki o'ziga jalb eta olish, qadriyatlar va madaniy yaqinlik orqali erishishi mumkin (Nye, 2004). P. İpek bu nazariyani aynan TIKA misolida tushuntirar ekan, konstruktivistik yondashuvdan kelib chiqib, tashqi siyosat instrumentlarining o'zgarishi nafaqat moddiy manfaatlar, balki ichki tuzilmalar doirasida shakllanadigan g'oyalar bilan ham belgilanishini ta'kidlaydi (İpek, 2015). Shu ma'noda TIKA Markaziy Osiyoda bir vaqtning o'zida ham rivojlanish agentligi, ham madaniy-sivilizatsion yaqinlikni siyosiy resursga aylantiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

1990-yillarda Turkiyaning o'zidagi siyosiy beqarorlik va surunkali iqtisodiy inqirozlar TIKAning samaradorligini bevosita cheklab qo'ydi. Bunga «turkiy model»ning jozibadorligi pasayishi va Rossiyaning sobiq sovet hududidagi ta'sirini tiklashi qo'shildi (Özkan & Demirtepe, 2012). Natijada dastlabki o'n yillikda agentlik nihoyatda kamtarin moliyaviy resurslar bilan, asosan ta'lim va madaniyat sohasidagi nuqtaviy loyihalar - maktab hamda kutubxonalar qurish, Turkiyada tahsil olish uchun stipendiyalar berish doirasida faoliyat yuritdi. Bu davrda Turkiyaning rasmiy rivojlanish yordami (RRY) hajmi nihoyatda past - 2002-yilda atigi 85 million dollar atrofida edi (OECD, 2025).

Vaziyat 2002-yildan keyin, mamlakatdagi barqaror iqtisodiy o'sish va tashqi siyosatdagi ko'p tomonlamalik kursi sharoitida tubdan o'zgardi. 2011-yilda qabul qilingan qonun bilan agentlik institutsional jihatdan qayta tuzildi, uning geografik qamrovi kengaydi va moliyaviy salohiyati keskin oshdi (Özkan & Demirtepe, 2012). Turkiyaning RRY hajmi 2004-yildagi 488 million dollardan jadal o'sib (Fidan &

Nurdun, 2008), 2017-yilga kelib mamlakat byudjetidan ajratilgan umumiy rasmiy rivojlanish yordami 8,1 milliard dollardan oshdi (İpek & Kayabaşı, 2025). Agentlikning dala tuzilmasi ham shu sur’atda kengaydi: 2002-yildagi 12 ta vakolatxona 2010-yilga kelib 28 taga yetdi, hozirgi kunda esa TIKA 61 mamlakatda 63 ta koordinatsiya ofisi orqali faoliyat yuritadi (İpek & Kayabaşı, 2025). Quyida Turkiyaning umumiy RRY dinamikasi 1-rasmda yillar kesimida aks ettirilgan.



**1-rasm.** Turkiyaning umumiy rasmiy rivojlanish yordami (RRY) hajmi va uning yalpi milliy daromadga (YMD) nisbati, 2010–2023-yillar (mln AQSh dollari va foiz hisobida). Manba: İpek & Kayabaşı (2025), OECD Data Explorer (2024) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**Ilmiy izoh:** Diagramma 2012–2019-yillar oralig’ida ko’rsatkichning deyarli to’rt baravar oshganini, ODA/YMD nisbatining esa 2019-yilda 1,15 foizga yetib, BMTning 0,7 foizlik mezonidan ancha ustun chiqqanini ko’rsatadi. Biroq bu o’sish egri chizig’ining sababini quyida ko’rsatilganidek ehtiyotkorlik bilan talqin qilish zarur.

Diagrammada aks etgan dinamikani yillar kesimida batafsil ko’zdan kechirish bir necha sifat jihatdan farqli bosqichni ajratish imkonini beradi. 2010-2011-yillarda ko’rsatkich nisbatan past sathda - RRYning yalpi milliy daromadga nisbati 0,13-0,16 foiz oralig’ida saqlanib turdi. 2012-yilda esa sezilarli sakrash ro’y berdi va bu nisbat 0,32 foizga ko’tarildi. Keyingi uch yil davomida u barqaror o’sib, 2015-yilga kelib 0,50 foizni tashkil etdi (İpek & Kayabaşı, 2025). Eng keskin jadallashuv 2016-2019-yillarga to’g’ri keladi. Bu davrda ko’rsatkich 0,76 foizdan 1,15 foizgacha ko’tarilib, mutlaq ifodada Turkiyaning umumiy RRYsi 2019-yilda 8,6 milliard dollardan oshib, o’zining tarixiy cho’qqisiga chiqdi. 2020-yildan keyin esa teskari tendensiya kuzatiladi. Nisbat 2021-yilda 0,96 foizga, 2022-yilda 0,79 foizga va 2023-yilga kelib

0,60 foizga tushdi (İpek & Kayabaşı, 2025). Bu pasayish, bir tomondan, mutlaq hajmning qisqarishini, ikkinchi tomondan, milliy daromadning nisbatan tez o‘shishini aks ettiradi va Turkiyaning yordam siyosati tashqi hamda ichki iqtisodiy konyunkturaga sezgir ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur yalpi ko‘rsatkichlarni Markaziy Osiyoga oid xulosalar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash metodologik jihatdan xato bo‘lardi. 2011-yildan boshlangan Suriya inqirozi va undan keyingi qochqinlar oqimi Turkiya yordamining tarkibini tubdan o‘zgartirib yubordi. 2015–2022-yillarda mamlakat ajratgan jami 63,5 milliard dollarlik yordamning 78,9 foizi (50,2 milliard dollar) gumanitar yordamga, asosan Suriyaga to‘g‘ri keldi (İpek & Kayabaşı, 2025). Demak, 2012-yildan keyingi keskin o‘shish deyarli butunlay Yaqin Sharq yo‘nalishi bilan bog‘liq bo‘lib, Markaziy Osiyoga yo‘naltirilgan oqimlar bu raqamlarning juda kichik, ammo sifat jihatidan boshqacha - ko‘proq rivojlanish va texnik hamkorlik xarakteridagi - qismini tashkil etadi. Aynan shu tafovut TIKAning mintaqadagi rolini tahlil qilishda asosiy metodologik tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Mintaqaga oid aniq ko‘rsatkichlar bu farqni yaqqol namoyon etadi. 2016-yilda Turkiyaning ikki tomonlama rasmiy rivojlanish yordamining eng yirik yordam oluvchilari orasida Qirg‘iziston (25,39 million dollar) va Qozog‘iston (18,96 million dollar) Suriyadan keyingi eng yuqori o‘rinlardan birini egalladi (Akıllı & Çelenk, 2019). OECD ma‘lumotlariga ko‘ra, 2015-yilda Qirg‘iziston Turkiyaning ikki tomonlama rivojlanish hamkorligi bo‘yicha eng yirik beshta sherigi qatoriga kirgan edi (OECD, 2025). Bu raqamlar 1-jadvalda keltirilgan bo‘lib, ular ikki muhim jihatni ochib beradi. Birinchidan, Suriyaning yordam geografiasidagi mutlaq ustunligini, ikkinchidan, shunga qaramay, Markaziy Osiyo respublikalarining Turkiya yordami tarkibida hamon ustuvor o‘rin tutishini.

Oluvchi davlat	RRY hajmi (mln AQSh dollari)	Mintaqa
Suriya	5 851,23	Yaqin Sharq
Somali	59,63	Afrika
Falastin	43,12	Yaqin Sharq
Afg‘oniston	32,69	Janubiy Osiyo
Bosniya va Gertsegovina	30,29	Bolqon
Qirg‘iziston	25,39	Markaziy Osiyo
Shimoliy Makedoniya	18,96	Bolqon
Qozog‘iston	18,96	Markaziy Osiyo
Ozarbayjon	14,24	Janubiy Kavkaz
Niger	11,91	Afrika

**1-jadval.** Turkiyaning ikki tomonlama rasmiy rivojlanish yordamining eng yirik oluvchi davlatlari, 2016-yil (mln AQSh dollari)

*Manba: Akıllı & Çelenk (2019); Turkish Development Assistance Report 2016 ma'lumotlari asosida tuzilgan. Markaziy Osiyo davlatlari ko'k rang bilan ajratilgan.*

**Ilmiy izoh:** Jadval yordam taqsimotidagi nomutanosiblikni ko'rsatadi: Suriya ulushi qolgan barcha oluvchilar yig'indisidan bir necha barobar yuqori. Ayni paytda Qirg'iziston va Qozog'iston Suriyadan tashqari eng yirik oluvchilar qatorida turishi mintaqaning Turkiya uchun strategik ustuvorligi Yaqin Sharq yo'nalishi kuchaygan davrda ham saqlanib qolganini tasdiqlaydi. E'tiborlisi, O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston bu ro'yxatda ko'rinmaydi — bu ularning yordam tarkibida nisbatan kam ulushga ega ekanligidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyodagi TIKA loyihalarining sektoral tarkibi agentlikning yumshoq kuch funksiyasini bevosita aks ettiradi. Ta'lim sohasida bu - Turkiyada tahsil olish uchun stipendiyalar va oliy o'quv yurtlarida turkologiya markazlarini ochish, sog'liqni saqlashda zamonaviy shifoxonalar qurish hamda tibbiyot xodimlarini tayyorlash, madaniyatda esa tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi (Kahveci & Kuşçu Bonnenfant, 2023). Masalan, TIKA Qirg'izistonda kardiologiya va gastroenterologiya yo'nalishlarida ixtisoslashgan 72 o'rinli shifoxonani ishga tushirgan. O'zbekistonda Xivada an'anaviy hunarmandchilik markazi tashkil etilgan. Qozog'istonda esa arxeologik qazishmalar moliyalashtirilgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, bu loyihalar ko'pincha strategik joylashuvga ega va yuqori darajada ko'rinarli bo'ladi hamda bu ularning bevosita rivojlanish samarasidan tashqari simvolik-siyosiy vazifasini ham ko'rsatadi.

## **MUHOKAMA**

Bu loyihalar orasida ta'lim yo'nalishi alohida strategik ahamiyatga ega. Zero u eng uzoq muddatli va chuqur ta'sir mexanizmini ifodalaydi. Turkiyada tahsil olgan markaziy osiyolik talabalar, shuningdek mahalliy universitetlardagi turkologiya markazlari faoliyatidan bahramand bo'lgan kadrlar vaqt o'tishi bilan o'z mamlakatlarining ma'muriy, akademik va madaniy elitasi tarkibiga singib boradi. Shu tariqa til, qadriyat va dunyoqarash darajasidagi yaqinlik institutsional kanallar orqali keyingi avlodlarga uzatiladi (Kahveci & Kuşçu Bonnenfant, 2023). Konstruktivistik nuqtai nazardan, aynan shunday tarmoqlarning shakllanishi yumshoq kuchning eng barqaror manbai sanaladi, chunki u bir martalik moliyaviy transfertdan farqli o'laroq, o'zini izchil takror ishlab chiqaruvchi ijtimoiy aloqalar tizimini vujudga keltiradi (İpek, 2015). Shu bilan birga, bu mexanizmning natijadorligi avtomatik kafolatlanmaydi. U uzluksiz kuzatuv, bitiruvchilar bilan

aloqani saqlash va mahalliy ehtiyoj bilan muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Aks holda boshlang'ich sarmoya o'zining strategik qiymatini asta-sekin yo'qotishi mumkin.

Aynan shu ko'rinarlilik agentlik faoliyatining «millat brendingi» o'lchovini ochib beradi. Akıllı va Çelenk TIKAni Turkiyaning ijobiy xalqaro obro'sini shakllantiruvchi hamda davlatning «saxiy» va «insonparvar» qiyofasini mustahkamlovchi vosita sifatida tahlil qiladi (Akıllı & Çelenk, 2019). Markaziy Osiyo bu strategiya uchun nihoyatda qulay maydon, chunki bu yerda yordam umumiy til, tarix va din zaminiga quriladi (Kahveci & Kuşçu Bonnenfant, 2023). Shu bilan birga, mualliflar Turkiyaning faoliyati bir xil emasligini ham ta'kidlaydi. Turkiy bo'lmagan Tojikiston bilan madaniy-lingvistik yaqinlikka asoslangan hamkorlik turkiy respublikalarga nisbatan ancha cheklangan ko'lamda kechadi. Bu holat yordamning sof rivojlanish ehtiyojidan ko'ra sivilizatsion mansublik mantig'iga bo'ysunishini bilvosita tasdiqlaydi.

Mazkur xususiyatlarni kengroq xalqaro kontekstga joylashtirish lozim. Turkiya an'anaviy G'arb donorlaridan farqli o'laroq, xalqaro rivojlanish yordami hamjamiyatiga nisbatan kech, asosan 2000-yillardan keyin integratsiyalashgan «yuksalayotgan» donor sifatida maydonga chiqdi (Fidan & Nurdun, 2008). Bu kechikish, paradoksal ravishda, agentlikka o'ziga xos manevr erkinligini berdi. U OECD Rivojlanishga ko'maklashish qo'mitasi (DAC) doirasida tarixan shakllangan qat'iy me'yorlardan nisbatan xoli holatda, donor va oluvchi o'rtasidagi munosabatni «teng hamkorlik» tilida qayta ramkalash imkoniyatiga ega bo'ldi. Fidan va Nurdun ta'kidlaganidek, Turkiyaning rivojlanish yordami uning umumiy tashqi siyosiy maqsadlari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, iqtisodiy, madaniy va strategik o'lchovlarni yagona vositada uyg'unlashtiradi (Fidan & Nurdun, 2008). Markaziy Osiyo aynan shu integratsiyalashgan yondashuvning eng yorqin sinov maydoniga aylandi, zero bu yerda rivojlanish ko'magi, madaniy diplomatiya va geosiyosiy manfaat bir-biridan deyarli ajralmas tarzda qo'shilib ketadi.

Konseptual darajada Turkiya o'z yondashuvini g'arbona «shartli yordam» modelidan farqlovchi «turkona rivojlanish hamkorligi modeli» sifatida taqdim etadi. U gorizontal sheriklik, o'zaro manfaat va talabga asoslangan loyihalashtirish tamoyillarini ilgari suradi (İpek & Kayabaşı, 2025). Bu ritorika Markaziy Osiyo davlatlari uchun va ularning suverenitetga sezgirligini hisobga olganda siyosiy jihatdan jozibalidir. Biroq tanqidiy nuqtai nazardan, gorizontal hamkorlik tilini agentlikning siyosiy-simvolik funksiyasidan ajratib bo'lmaydi. Shifoxonalardagi bayroqlar, davlat muassasalari yonidagi minnatdorlik lavhalari yoki pan-turkiy ramziyatni kuchaytiruvchi loyihalar yordamning, boshqa narsalar qatori, Turkiya ta'sirini ko'rinarli qilish vositasi ham ekanligini ko'rsatadi.

Shunday bo'lsa-da, TIKAning Markaziy Osiyodagi ta'siri qator obyektiv chegaralarga ega. Avvalo, mintaqada Rossiya va Xitoyning an'anaviy hamda iqtisodiy jihatdan ancha quvvatli ishtiroki Turkiya imkoniyatlarini cheklaydi. Ikkinchidan, Qozog'iston va O'zbekiston kabi tez rivojlanayotgan davlatlar tobora an'anaviy yordamdan ko'ra investitsiya va texnik hamkorlikni afzal ko'rmoqda. Qozog'iston hatto 2021-yilda o'zining xalqaro rivojlanish agentligini (KazAID) tashkil etib, donor maqomiga o'ta boshladi (OECD, 2025). Ipek ta'kidlaganidek, yumshoq kuchning samaradorligi kontekstga bog'liq bo'lib, doimiy kuzatuv hamda bitiruvchilar tarmog'ini mustahkamlash kabi keyingi mexanizmlarni talab qiladi (Ipek, 2015). 2020-yillardan boshlangan Turkiyaning Markaziy Osiyoga «qaytishi» - Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi institutsional yaqinlashuv ayni shu cheklovlarni yengish va yordamni kengroq strategik ramkaga joylashtirishga urinish sifatida talqin qilinishi mumkin (Kahveci & Kuşçu Bonnenfant, 2023).

Yuqorida sanab o'tilgan cheklovlar Turkiyaning mintaqaviy strategiyasida sezilarli o'zgarishni rag'batlantirdi. Agar 1990–2010-yillarda TIKA faoliyati asosan ikki tomonlama va loyihaviy xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, 2020-yillardan boshlab u tobora ko'p tomonlama institutsional ramka - Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi mintaqaviylashuv jarayoni bilan uyg'unlasha boshladi (Kahveci & Kuşçu Bonnenfant, 2023). Bu o'zgarish nazariy jihatdan muhim, chunki u yumshoq kuchni alohida davlatlarga yo'naltirilgan nuqtaviy ta'sirdan umumiy turkiy o'ziga xoslik atrofida qurilgan jamoaviy loyihaga aylantiradi. Mualliflar ta'kidlaganidek, aynan mintaqaviylashuv mantig'i Turkiyaga madaniy yaqinlikni institutsional poydevorga aylantirish imkonini beradi (Kahveci & Kuşçu Bonnenfant, 2023). Biroq bu yondashuvning chegarasi ham bor. Mintaqa davlatlarining ko'p vektorli tashqi siyosati va o'z suverenitetini har qanday milliy birlashuvdan ustun qo'yishi pan-turkiy integratsiyaning chuqurlashuviga tabiiy to'siq bo'lib qoladi.

## **XULOSA**

Tahlillarga ko'ra, TIKAning Markaziy Osiyodagi faoliyatini bir necha umumlashtirilgan xulosa shaklida bayon etish mumkin. Avvalo, agentlik 1990-yillardagi resurs tanqisligi va institutsional zaiflik sharoitidan o'tib, 2000-yillarda Turkiyaning ko'p tomonlama tashqi siyosatining yetuk quroliga aylandi. Uning evolyutsiyasi bevosita Turkiyaning xalqaro maydondagi yuksalishini aks ettiradi. Ikkinchidan, Markaziy Osiyo kontekstida agentlik faoliyatini sof qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan yordam sifatida emas, balki madaniy-sivilizatsion yaqinlik, institutsional salohiyatni mustahkamlash va yumshoq kuchni proyeksiyalash vositasi sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir bu jihat yordamning miqdoriy jihatdan kamtarin, ammo simvolik va strategik jihatdan salmoqli ekanligida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, agentlikning kelajakdagi samaradorligi mintaqa davlatlarining yordam oluvchidan teng sherikka aylanib borayotgan yangi maqomiga moslasha olishiga bevosita bogʻliq boʻlib qoladi. Shu maʼnoda TİKA misoli rivojlanish hamkorligi va tashqi siyosat oʻrtasidagi murakkab oʻzaro bogʻliqlikni yaʼni yordamning hech qachon faqat texnik-iqtisodiy hodisa boʻlib qolmasligini, balki har doim muayyan siyosiy mantiq doirasida shakllanishini yaqqol namoyon etuvchi, nazariy jihatdan boy keys boʻlib xizmat qiladi. Mintaqada raqobatning kuchayishi va mahalliy davlatlarning subyektlik salohiyati ortib borayotgan hozirgi sharoitda bu mavzu kelgusi tadqiqotlar uchun ham dolzarbligini saqlab qoladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akıllı, E., & Çelenk, B. (2019). TİKA's soft power: Nation branding in Turkish foreign policy. *Insight Turkey*, 21(3). <https://www.insightturkey.com/articles/tikas-soft-power-nation-branding-in-turkish-foreign-policy>
2. Fidan, H., & Nurdun, R. (2008). Turkey's role in the global development assistance community: The case of TİKA. *Journal of Southern Europe and the Balkans*, 10(1), 93–111. <https://doi.org/10.1080/14613190801895888>
3. İpek, E., & Kayabaşı, E. (2025). Türkiye's development assistance: Current status and the perspective of the 12th Development Plan. *Journal of Mehmet Akif Ersoy University Economics and Administrative Sciences Faculty*, 12(3), 1197–1219. <https://doi.org/10.30798/makuiibf.1702854>
4. İpek, P. (2015). Ideas and change in foreign policy instruments: Soft power and the case of the Turkish International Cooperation and Development Agency. *Foreign Policy Analysis*, 11(2), 173–193. <https://doi.org/10.1111/fpa.12031>
5. Kahveci, H., & Kuşçu Bonnenfant, I. (2023). Turkish foreign policy towards Central Asia: An unfolding of regionalism and soft power. *All Azimuth: A Journal of Foreign Policy and Peace*, 12(2), 195–218. <https://doi.org/10.20991/allazimuth.1310530>
6. Nye, J. S. (2004). *Soft power: The means to success in world politics*. PublicAffairs.
7. OECD. (2025). *Development co-operation profiles: Türkiye*. OECD Publishing. [https://www.oecd.org/en/publications/development-co-operation-profiles\\_04b376d7-en/turkiye\\_09a14591-en.html](https://www.oecd.org/en/publications/development-co-operation-profiles_04b376d7-en/turkiye_09a14591-en.html)
8. Özkan, G., & Demirtepe, M. T. (2012). Transformation of a development aid agency: TİKA in a changing domestic and international setting. *Turkish Studies*, 13(4), 647–664. <https://doi.org/10.1080/14683849.2012.746442>